



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



### YANGI O'ZBEKISTON QONUNCHILIGIDA INSON HUQUQLARINI SUD ORQALI HIMoya QILISHNING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI

**Diyora Akbarxo'jayeva**

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, "Xalqaro huquq" fakulteti  
1-kurs talabasi.*

**Zokirova Dilso'z**

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, "Xalqaro huquq" fakulteti  
1-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi qonunchilik tizimida inson huquqlari va erkinliklarini sud orqali himoya etishning yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz zamirida belgilangan konstitutsiyaviy asoslari haqida so'z yuritiladi. Inson, uning hayoti va qadr-qimmatini himoya etish davlat organlari, ayniqsa, sud tizimining ustuvor vazifasi sifatida malakatimiz doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar xususida fikrlar keltiriladi.

**Kalit so'zları:** Inson huquqlari, erkinlik, sud tizimi, davlat organlari, islohot, konstitutsiyaviy asos.

Jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan davrda inson huquqlari va erkinliklari, uning kafolatlarini ta'minlash, barcha islohotlarning zamirida inson manfaatlarining ko'zlanishi g'oyat katta ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi texnologiyalar asrida inson sha'ni, qadr-qimmati va uning huquqlarini har jahhada himoya qilishning samarali mexanizmlari ishlab chiqilmoqda. Inson eng oliy qadriyat darajasida ulug'lanishi ham uning konstitutsiyaviy jihatdan mustahkamlanishi bilan chambarchas bog'liqdir. 2022-yil 26-yanvardagi Prezidentimiz tashabbusi bilan qabul qilingan "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"ning dastlabki ustuvor yo'nalishi ham aynan inson qadrini yuksaltirishga qaratilgandir.

Jahonning yetakchi davlatlari qatorida bugungi kunda o'zining siyosiy-huquqiy, ma'naviy-ma'rifiy, iqtisodiy va har jahhada kundan kunga rivojlanib borayotgan Yangi O'zbekistonda demokratik islohotlar yanada avj olmoqda, insonparvarlik prinsiplari ilgari surilmoqda. Inson, uning manfaatlari eng ustuvor vazifa sifatida ko'rilmoxda. Buni 2023-yil 30-aprelda umumxalq referendumi asosida qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda: "O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, unga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATION G'ÖYALAR



hisoblanadi" deya belgilanishi orqali ham bilishimiz mumkin. Mamlakatimizda inson huquq va erkinliklarini davlat va davlat organlari orqali himoya etishning "inson-jamiyat davlat" tizimi joriy etildi. Bularning barchasi inson, uning hayoti va qadr-qimmatini himoya etish va har tomonlama qulay shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi qonunchilik tizimida inson manfaatlari, huquq va erkinliklarini sud organlari orqali himoya etish tizimining yanada takomillashtirilmoqda. Jumladan, inson huquq va erkinliklarini ta'minlashda sud organlari tizmining yanada ochiqligi, xalqchilligi va shaffofigini ta'minlash maqsadida "Elektron odil sudlov" tizimi joriy etildi. Aholi o'z huquqlariga oid ma'lumotlarni tez va oson, qulay usulda olish uchun "Advice.uz" saytining imkoniyatlari yanada kengaytirildi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga ko'ra, aybdor shaxs o'zining haq-huquqlarini himoya etishi uchun barcha imkoniyatlар yaratilishi zarur. Hech bir fuqaro sud hukmisiz 48 soatdan ortiq muddatda hibsda saqlanishi mumkin emasligi belgilangan va aybsizlik prezumpsiyasining bugungi kunda amaliyotga tatbiq etilganligi bu boradagi ishlar ko'lamenti yangi bosqichga ko'tardi. Ilk marotaba insonlarning huquq va erkinliklarini cheklash bilan bog'liq barcha harakatlarga faqat qoununga muvofiq va sud qarori asosida yo'l qo'yilishi, AQSh fuqarolarni himoya etish tizimidagi "Miranda qoidasi" zamirida gumonlanuvchi yoki ayblanuvchi shaxslarga "sukut saqlash" huquqining berilishi ham shular jumlasidandir. Bu borada Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning: "Sud binosiga kelgan har bir inson O'zbekistonda adolat borligiga ishonib chiqib ketishi kerak. Bu Prezident talabi ", - deya ta'kidlashlari ham inson huquqlarini himoya qilishda sud organlaring rolini yanada kuchaytirish borasida keng ko'lami ishlar amalga oshirilayotganligini ifodalasidir.

Yurtimizda sud-huquq tizimida "Xabeas korpus" institutining faoliyat doirasi kengaytirilganligi, qamoqqa olish tarzidagi chorasi qo'llash yoki qamoqda saqlash muddatini uzaytirish, ehtiyoj uchun sanksiya berish vakolatining sndlarga o'tkazilishi inson huquqlari tizimining sud orqali himoya qilishning mazmunini bir muncha olib berdi desak adashmaymiz. Shu ma'noda, mamlakatimiz aholisining mol-mulk, sog'liqni saqlash va har tomonlama huquqlarini qo'llab-quvvatlash, ularning poymol etilishiga yo'l qo'ymaslik, bola huquqlari, ayollar huquqlaring har qanday ko'rinishlarini kafolatlash sud organlari tizmining ustuvor vazifasidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi davlat organlari, ayniqsa, sudlar tomonidan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizni bevosita qo'llagan holda qarorlar qabul qilish amaliyotini har tomonlama qo'llab-quvvatlashi so'zimizning isbotidir.





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OVALAR



Bugungi kunda o'tgan davr nuqtayi nazaridan xolisona fikr yuritadigan bo'lsak,

fugorolarimiz endilikda sudya va advokatlar timsolida o'z sha'nining, qadr-u qimmatining posponlarini, mustahkam himoyachilarini ko'z oldiga keltirmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoniga muvofiq globallashuv sharoitida eng ko'p kuzatilayotgan va aholi o'rtasida turli xil qarashlarga sabab bo'layotgan "axborot xurujlariga tezkor munosabat bildirish" ham sud organlari zimmasiga yuklatildi. Avvalgi davrdan farqli ravishda mamlakatimizning har bir hududi, har bir shtat birliklarida sudlar tashkillashtirildi. Olis manzillardagi aholimiz o'z huquqlarini himoya etish uchun endilikda uzoq masofadan kelishlari shart emas.

O'zbekiston Respublikasi qoununchilik tizimida tili, dini, irqi, millati, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar har bir shaxsning qadr-u qimmati qonunan himoyalangan. Jumladan, davlat hokimiyatining uchinchi tarkibiy qismi sanalmish sud tizimida davlat lavozimlari, xususan, sudyalik lavozimi belgilanishida ham xalqaro gender tenglik masalasi ustuvor jihatlardan biri sifatida ko'zga tashlanadi. Ya'ni, xotin-qizlarning huquqlari insonparvarlik tamoyillariga mutanosib tarzda ushbu sohada ham kafolatlangan. Bundan tashqari, aholi uchun qulaylik yaratish maqsadida sud tizimi zamon bilan hamnafas tarzda raqamlashtirilmoqda, bu esa har xil qonunga xi洛f holatlarning kelib chiqishiga to'sqinlik qilmoqda.

Shu o'rnila ta'kidlash kerakki, bugungi kundaadolat qo'rg'oniga aylanib borayotgan sud organlari va ularning tizimlari faoliyatida inson qadri, uning huquqlarini himoya etish eng yetakchi vazifa sifatida belgilab qo'yildi. Buning asosi esa Yangi O'zbekistonning yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida, Prezidentimiz tashabbusi bilan qabul qilinayotgan qaror va farmoyishlarda mustahkamlab qo'yilmoqda. Har bir huquqiy asos, yuridik fakt inson manfaatlariga xizmat qilishi ko'zda tutilgan. Zero, insonni inson ekanligi uchun ulug'lash, uning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmatini har tomonlama himoya etish har bir demokratik davlatning eng asosiy belgisidir.





# TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi". 30.04.2023.

URL: <https://lex.uz/docs/-6445145>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risidagi." PF-6012-son qarori. 22.06.2020. URL:

<https://lex.uz/docs/4872355?ONDATE2=30.04.2021&action=compare>

3. "Prezident-odil sudlov, korrupsiya, xususiy mulk himoyasi to'g'risida".

4. 30.06.2020. URL: <https://www.gazeta.uz/oz/2020/06/30/justice/>

5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining qarori. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi-mamlakatdagi konstitutsiyaviy qonuniylikning holati to'g'risidagi axborotini tasdiqlash haqidagi". KSQ-7son. 05.12.2023.

6. "Sud-huquq sohasidagi islohotlar inson qadriga qaratilgan". Sh. To'xtashev. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo'mitasi a'zosi. 13.06.2023.

URL:<https://parliament.gov.uz/articles/1554>

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori. "Sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada kengroq joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida". 30.08.2017-yil. PQ-3250-son.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi". PF-11-son. 16.01.2023-yil.

